

ULUG`BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA PO`LAT OBRAZI

Kurbanov Sanjar Saliyevich

BDU Ingliz tilshunosligi” kafedrasi o`qituvchisi

Murodullayev Abdulloh

BDU 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ota obrazi jahon adabiyotida ham alohida o`rin tutadi. Jahon adabiyotida bu mavzuda yaratilgan asarlarga misol qilib, Turgenevning “Otalar va bolalar”, Onore de Balzakning “Gorio ota”, Fridrix Shillerning “Qaroqchilar” kabi asarlarni keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolada Ulug`bek Hamdam adibimizning ijodlaridan o`rin olgan “Ota” romaniga atroflicha fikr yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Ota, farzandsizlik, oilaviy munosabatlar.*

“—Axir men otaman, ota! Bu dunyo otalar qo`lida edi-ku yoki men tufayli chiqib ketdimi? Yo`q, yo`q, bunga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Aslo! Kerak paytda otalar qatiq turmas ekan, dunyo ham o`z o`rnida turmaydi: buziladiketadi. Mana, men—seni ko`p yaxshi ko`rib yubordim. Yuzing kuyik, yuraging kuymasin dedim, erkaladim, papaladim. Xo`sh, nima bo`ldi keyin? Ko`chadan bola orttirding! Haromi deyishadi axir bunday bolani, haromi!.. Yo Alloh, qanday qilib yo`l qo`yding bunga? Endi qanday chidayman? Meni nevaram haromi bo`lib keladimi uyimga?!.. Yo`q, also mumkin emas!.. Bugun men bunga xo`p desam, ertaga yana boshqa birov qiladi bu ishni! Endi keyingisiga yo`l qo`ymayman! Odamlar xayolida “Shunday qilib bola tug`ish mumkin ekan” degan o`yni tag-tomiri bilan sug`urib tashlash uchun ota qilishi kerak bo`lgan ishni qilaman!.. Sevinch, shu choqqacha otang mehrini ko`rib kelding, endi qahrini ham ko`r!.. Shunga meni majbur qilganing uchun la`nat bo`lsin senga, la`nat bo`lsin bunday qismatga!..”[5;104]

Ulug`bek Hamdamning “Ota” romani ustoz Umarali Normatov ta`biri bilan aytganda, romanchilikka qayta jon ato etgan asar. “Ota” bu shunday asarki, kitobni ochgan zahoting O`tkir Hoshimovni eslaysan. Chunki asarning ilk sahifasi “Barcha otalarga bag`ishlanadi”, degan izoh bilan boshlanadi. O`tkir Hoshimov dunyoning barcha onalariga atab yozgan qissa kabi sevikli bir asardir. Bir necha sahifa qoralaganingdan so`ng ko`z oldingda “Kafansiz ko`milganlar” qismatiga sherik Shukrullo bobo shuuringda bo`y ko`rsatadi. Jangning adoqsiz dardlari, musibatlari Oybek domlaning “Quyosh qoraymas”idek, Hemenguey boboning “Alvido Qurol”idek o`qimishli. Nikita va Polatning o`tda yonmas, suvda cho`kmas rishtasi esa fikringni uloqtirib uzoq Bobil afsonalariga olib boradi-da, butun Yer sayyorasiga bir-bir bo`ylashga majbur etadi. Beixtiyor ikki bahodir Gilgamish va



Enkiduni, Bobotog`da singirlarini qisirlatib uchrashgan ikki alp Alpomish va Qorajonni, va nihoyat insonning ilohiy ishqiga guvoh mitti shahar Ko`nyoning ikki javhari Shams Tabriziy va Jaloliddin Rumi siymosini his etasan. Asarni varaqlash asnosida mana shu hislar og`zinda erigan qand misol kechdi. Yozuvchi esa bu go`zal do`stlikka bir og`iz gap bilan izoh beradi: “Hatto kishining o`z soyasi ham uning o`zi bilan Nikita va Po`lat birga bo`lganchalik birga bo`lolmaydi...”⁴⁵

O`tkir aka – Ulug`bek Hamdam aytmoqchi, haqiqiy o`zbek otasi. O`rtadagi yillar farqini aytmasa, Yusufbek Hojining aynan o`zi. Oychechak opa – O`zbek oyimni shu qadar eslatdiki, ikki tanada bitta ruh yashayotgandek his qildim. Po`lat(boy) (boy alqov qo`shimchasini ishlatishni joiz topdim. Zero, hayotning bor muhabbati va azobini totgan insonga bundan ortiq ta`rif yo`q.) – dunyodagi nodir otalarning jamlanmasi. Yog`du – hayotning bebaho javhari. Alloh tomondan bir erkakka rahmat nazaridan berilishi mumkin bo`lgan mukammal omad timsoli. Sevinch... Real hayotda ham ko`plar intizor bo`lgan, necha yillar sajdaga bosh qo`yib Rabbimdan o`tinayotgan shirin ne`mat. Erboy – hayotning hayot ekanligini, unda hamisha to`qnashuvlar, og`riqlar, adolatsizliklar bo`lishini, qismat posangisini og`masligi uchun yaratilgan toshning ayni o`zidek qahramon.

Yashar ekansan, qisqa umring davomida barcha tuyg`ularni boshdan kechirasan. Adolat va nohaqlik, muhabbat va nafrat, isyon va itoat, vasl va hajr, do`stlik va dushmanlik, topish va yo`qotish, xushnudlik va qayg`u... Bular Allohning sinov nomli lashkarlari bo`lsa ne ajab?! “Ota” romani ham umr bo`yi uchratganing mana shu yaratilgan tizmasidan iborat. Inson dunyoga kelar ekan, o`zi qo`ygan maqsad sari intiladi. Maqsadingizda xatolik bo`lsa, topganingiz yo`qotganingizdan-da og`irroq bo`ladi. Bu hayotning eng sodda qonuni. Asar qahramoni Po`lat ham maqsadini noto`g`ri qo`yish asnosida ko`p balolarga giriftor bo`lgan, ammo har qanday vaziyatda Alloh yuqtirgan vijdoni, mardligi, pokligi sabab umrning beayov jodisidan boshini omon saqlay olgan betakror obraz. Mashaqqat tegirmonidan ilma-teshik bo`lgan qalbini hovuchlab, omon chiqar ekan, xatolar natijasida anglagan hayotning oliy haqiqatini o`ylay boshlaydi: “Bir kelish-u, bir ketishda! Shu kelib ketishda ortingdan qoladigani faqat bola! Bola – o`limning yuziga inson tushirgan tarsaki. Ortidan farzand qoldiribgina “Dunyoda men ham borman”, deya oladi erkak kishi. Yo`qsa umr hovuchingga olgan suvdek oqadi-ketadi. Farzand, faqat farzand. Qolgani bekor...”⁴⁶

Lekin insonning haqiqatlari Allohning adolati, haqiqatlari oldida jo`n bir chiranish, ehtimollar nazariyasi xolos. Chunki bugun bizga oliy haqiqat bo`lib ko`ringan hodisot, ertaga ulkan xato bo`lishi mumkin. Bandamiz, taqdirning,

⁴⁵Улуғбек Ҳамдам. Ота. Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 140- б.

⁴⁶Улуғбек Ҳамдам. Ота. Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 90 -б.



qismatning yozig`iga bandi. Isyon qilgan onimiz tartibga chaqiriladigan imtihon topshiruvchi toliblar. Eng muhimi, olamdagi insonlik vazifang ado bo`lmas ekan, nasibang uzilmaydi. Dunyoga keldingmi, missiyangni ado etishing shart. Undan kam ham, ortiq ham bo`lmaydi, Po`lat ota bir inson hayoti bilan shu qonunni isbotlagan, dunyodagi barcha mehribon, or-nomusli, isyonkor bo`lish barobarida Allohning irodasi oldida taslim, butun umri sevinch-u armon orasida o`tgan otalarning ramzidir. Yaxshiki, “Yolg`izlikning yuz yili” singari nasl davomchisi qurib, qovjirab bitmadi. Yaxshiki, Yodgor bor. U insonlar o`ylagandek valadi zino emas. U Allohning tuhfasi, Po`lat otaning orzulari ijobati. Butun niyatlarini naslim davom etsin, degan pok orzuga tikkan otaning muhabbati tajassumi. Shukurki, asar nihoyasida Sevinchning ikki yuzidek ham ayanchli, ham go`zal umrning zalvoridan tolgan Po`lat ota oliy haqiqatni anglab yetadi. Barcha kitobxon qatori men ham o`z haqiqatlarimni kundalikka chizaman: “Hayot senga qanchalar katta to`siq qo`ymasin, yaxshilikdan umidingni uzma. Alloh hammaga ham Sevinch misoli umringni nurga, muhabbatga to`liq, yashash uchun arziydigan yaratilarni tuhfa etadi. Faqat bir qoidani bilsang bo`ldi. Har qanday vaziyatda ham vijdon amriga quloq sol. Isyon qilma”⁴⁷, - degandek bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Улуғбек Ҳамдам. Ота. Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 140- б
2. Ernest Hemenguey “Alvido Qurol” 1929 y
3. Kurbanov, S. . (2023). The Theme of Father-Daugther Relationship in “to Kill a Mockingbird” by Herper Lee. Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences, 144–147. Retrieved from <https://openconference.us/index.php/ysc/article/view/804>.
4. Kurbanov, S. (2023). “ЎТКАН ҚУНЛАР” РОМАНИДА ОҚИЛ ОТАЛАР ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 32(32).
извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9470.
5. Saparova, M. R., & Sevinchova, N. N. (2019). THE ROLE OF GRAMMAR IN LEARNING THE ENGLISH LANGUAGE. In Язык и культура (pp. 67-71).
6. Ramazonovna, S. M. (2023). THE ROLE OF AN ENGLISH TEACHER IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND CREATIVE

⁴⁷Улуғбек Ҳамдам. Ота. Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 150 - б.



ABILITIES OF STUDENTS. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 4 (04), 66–73.

7. Kurbanov, S. S., & Saparova, M. R. (2021). BADIY ASAR JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA QARG'ISH ANGLATUVCHI DISFEMIZMLARNING PERSONAJLAR NUTQIDA BERILISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 1246-1251. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-jozibadorligini-oshirishda-qarg-ish-anglatuvchi-disfemizmlarning-personajlar-nutqida-berilishi>

8. Saparova, M. R. (2016). The problem of stylistic classification of colloquial vocabulary. *Міжнародний науковий журнал*, (5 (1)), 80-82. <https://www.inter-nauka.com/uploads/public/1505892674749.pdf#page=81>.

9. Rasulov, Z. I. (2011). Syntactic ellipsis as a manifestation of the economy of language): abstract of dissertation.. candidate of philological sciences/Rasulov Zubaidullo Izomovich.-Samarkand, 2011.-27 p.

10. Izomovich, R. Z., & Fazliddinova, U. D. (2021). The Problems of Second Language Acquisition and Writing in Teaching English Language. "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 229–233.

11. Aliev, O. S., & Rasulov, Z. I. (2021). Conceptual Problems of Synchronic Translation. *JournalNX*, 123-125.

12. Rasulov, Z. (2022). О дискурсивном анализе в современной лингвистике. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 25(25).

13. Ruziyeva, N. Z. (2023). EVFEMIK OLAM MANZARASIDA O' LIM KONSEPTINING AKS ETTIRILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 443–447. <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/950>.

14. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Questioning techniques in teaching English // *Достижения науки и образования*. 2018. №5 (27). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/questioning-techniques-in-teaching-english>.

15. Саидова, З. Х. (2022). BASIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS: Saidova Zulfizar Khudoyberdievna, Teacher of English Linguistics Department, Bukhara State University. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (7). <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/view/1488>.

16. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Implementation of some techniques in developing reading skills in English classes // *Достижения науки и образования*. 2018. №5 (27). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/implementation-of-some-techniques-in-developing-reading-skills-in-english-classes>.



17. Abdullayeva, G. (2021). Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari Annotatsiya. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3032
18. Abdullayeva, G. (2021). Yosh tarjimonlarda sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3037.
19. Askarovich, H. A. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8 (1), 87–91.
20. Haydarov, A. (2012). Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantikgrammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami. *T.: Muharrir*, 8-10.
21. Makhmudovich, T. M. (2022, January). Techniques of Teaching Metaphors in Class. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 34-38).
22. Tursunov, M. M. (2019). Peculiar Features of Metaphorical Phraseological Units. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 119-127.
23. Tursunov, M. (2023). "ANALYSIS OF NEW LEXICAL UNITS' EMERGENCE IN PUBLICISTIC TEXTS ON THE INTERNET PLATFORM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 31(31). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9341.
24. Makhmudovich, T. M. ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ТАРКИБИДА ҲАЙВОНЛАРГА ОИД ЛЕКСЕМАЛАР ҚАТНАШГАН БАЪЗИ БИР МЕТАФОРИҚ ИБОРАЛАРНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ ТАҲЛИЛИ ЛИНГВОКОГНИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ФРАЗ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ, ВКЛЮЧАЮЩИХ ЛЕКСЕМЫ ЖИВОТНОГО МИРА LINGUO COGNITIVE ANALYSIS OF SOME METAPHORIC EXPRESSIONS CONTAINING.
25. Sulaymonbekovna, Q. N., & Raimovna, I. G. (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 902-908. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=136>



26. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594-600. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1055>

27. KOBILOVA, N. Literary Psychology and the Principle of the Epic Image. *JournalNX*, 7(02), 306-309. <https://media.neliti.com/media/publications/342765-literary-psychology-and-the-principle-of-1cb9cf8a.pdf>.

28. Xushvaqt, U. (2020). Semantical Features Of Folklore Samples. *Solid State Technology*, 63(4).

29. Nazarova, G. P., Umurova, K. H., & Kasimova, N. F. (2020). Peculiarities of the mythological images of the British folklore. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8 Special Issue), 1614-1618.

30. Nazarova, G. P., Umurova, K. H., & Kasimova, N. F. (2020). Peculiarities of the mythological images of the British folklore. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8 Special Issue), 1614-1618.

31. Umurova Kh. COMMUNICATIVE APPROACH IN LISTENING // *Мировая наука*. 2019. №2 (23). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/communicative-approach-in-listening>.

32. Kobilova A.B. (2023). Lingua-cultural aspects of medical periphrases of English language/ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journalю <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=5&article=004>

33. Kobilova, A. B. (2017). Different types of tests used in language teaching. *Міжнародний науковий журнал Інтернаука*, (1 (1)), 134-135. <https://www.inter-nauka.com/issues/2017/1/1898>

34. Кобилова, А. Б. (2018). Giving feedback and peer editing as the main components in writing process. *Молодой ученый*, (13), 124-126. <https://elibrary.ru/item.asp?id=32733619>.

